



## BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNI INKLUYUZIV TA’LIMGA TAYYORLASHNING METODOLOGIK ASOSLARI

D.S. Kaxarova

Buxoro davlar universiteti dosenti

Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Email: dildora.kaharova@mail.ru

**Annotation:** Maqolada bo‘lajak o‘qituvchilarni inklyuziv ta’limga tayyorlashda davlat ta’lim standartlari talablariga javob beradigan hamda ularni faoliyatini kompitensiyaviy yondashuv asosida rivojlantirilishi va raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash tog‘risida fikr yuritilgan.

**Kalit so‘zlar:** Inklyuziv ta’lim, alohida e’tiborga muhtoj bo‘lgan bolalar, bo‘lajak o‘qituvchilar, integrasiya, kasbiy kompetentligini rivojlantirish.

### Аннотации:

В статье рассматривались вопросы подготовки будущих учителей к инклюзивному образованию, отвечающего требованиям государственных образовательных стандартов, а также развития их деятельности на основе компетентностного подхода и подготовки конкурентоспособных кадров.

**Ключевые слова:** Инклюзивное образование, дети, нуждающиеся в особом внимании, будущие педагоги, интеграция, развитие профессиональной компетентности.

**Annotation:** The article considered the issues of preparing future teachers for inclusive education that meets the requirements of state educational standards, as well as the development of their activities based on a competence-based approach and the training of competitive personnel.

**Keywords:** Inclusive education, children in need of special attention, future teachers, integration, development of professional competence.

### KIRISH

Mamlakatimizda inklyuziv ta’lim tizimini innovatsion texnologiyalar asosida modernizatsiyalash orqali oliy ta’lim muassasalarida rivojlangan mamlakatlar standartlari talablariga javob beradigan faoliyati kompitensiyaviy yondashuv asosida rivojlantirish raqobatbardosh kadrlarni tayyorlashga e’tibor qaratilgan, o‘qitish jarayonini takomillashtirish zarurati yuzaga kelmoqda.

Bugungi kunda dunyoda fan va ta’limga kompetentli yondashuv asosida bo‘lajak bitiruvchilarning raqobatbardoshligini oshirish, oliy ta’limning sifatini yaxshilash jarayonidagi ijtimoiy rolini oshirish masalalari dolzarb yo‘nalishlardan biri sifatida tavsiflangan. Zamonaviy kasbiy ta’lim mazmunini kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan inklyuziv ta’lim tizimini amaliyatga keng tatbiq etish asosida bo‘lajak o‘qituvchilarni inklyuziv ta’limga tayyorlashda kasbiy kompetentligini rivojlantirish muhim o‘rin tutadi. Inklyuziv ta’lim tizimida faoliyat yuritishga tayyor bo‘lgan bo‘lajak o‘qituvchining asosiy vazifasi ta’lim jarayonlarini



innovatsion texnologiyalar asosida individuallashtirish, inklyuziv ta’lim xizmatlarini rivojlantirish, alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarning umumiy o‘rta ta’lim olishida va ularni bilish imkoniyatlariga muvofiq tarbiyalashda, ularning jamiyatga moslashuvi va integrasiyalashuvida ko‘maklashish, o‘quv-tarbiya, davolash-sog‘lomlashtish, boshlang‘ich tayanch korreksion sinflarda ta’lim sifatini oshirish, nazorat qilish, boshqarish shuningdek uning ruhiy olamiga professional yondashib, o‘zaro ishonch hissini uyg‘otish va tu‘g‘ilgan muammolarni zudlik bilan bartaraf etish talab etiladi.

Umumjahon miqyosida alohida e’tiborga muhtoj bolalarning ruhiy holatini inobatga olgan holda psixologik korreksiyalash metodlari, oila, jamoa va guruhlarda insonparvarlik munosabatlarini shakllantirish, texnologik ko‘maklashuvchi vositalar imkoniyatlarini oshirish borasida samarali ilmiy, ilmiy-texnik, ilmiy-pedagogik tadqiqotlar olib borilmoqda. Bu borada nogiron bolalarga ta’lim-tarbiya berishga dunyoviy yondashuvlarni o‘rganish, ular asosida milliy inklyuziv ta’lim jarayonini tashkil etish va takomillashtirish, o‘quvchilarning o‘z-o‘zini baholash texnologiyalari, moslashuv va muloqotni tashkil qilishga oid metodik tavsiyalar ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi.

Umumiy o‘qitish tizimida inklyuziv ta’limning pedagogik-psixologik jihatlari, nogironligi bo‘lgan bolalarning ta’limiy ehtiyojlarini qondirish, ularning huquqiy tengligi sharoitini yaratish, jamiyat a’zosi sifatidagi o‘rnini mustahkamlashga oid muammolar bu izlanishlarning asosini tashkil etib, ular nogiron bolalarning individual xususiyatlari va adaptiv imkoniyatlarini inobatga olish, ijtimoiy moslashuvini texnologik ta’minalash hamda qo’llab-quvvatlash o‘quv-tarbiya jarayonini tashkil etishning pedagogik tizimini takomillashtirishda alohida o‘rin egallamoqda.

Jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida kichik nuqsoni bo‘lgan bolalarni oddiy maktabgacha ta’lim muassasaga yoki maktabga joylashtirish inklyuziv ta’limni integratsiyalash jarayonining dastlabki bosqichidir. Mazkur chora-tadbirlarni amalga oshirish umumiy o‘qitish tizimi bilan inklyuziv ta’limni integratsiyalash, o‘quv-tarbiya jarayonini optimallashtirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining SH.M. Mirziyoyevning 2020-yil 24-yanvarda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga Murojaatnomasida “Eng katta boylik bu aql zakovat va ilm, eng katta meros bu yaxshi tarbiya, eng katta qashshoqlik bu – ilmsizlikdir. Shu sababli, hammamiz uchun zamonaviy bilimlarni o‘zlashtirish, chinakam ma`rifat va yuksak madaniyat egasi bo`lish uzuksiz hayotiy ehtiyojga aylanishi kerak” [1] – deb ta’kidlanishi har bir soha vakillari, ayniqsa ta’lim sohasida faoliyat olib borayotgan xodimlar doimiy izlanish bo‘lishda, yangi bilimlarni egallahsga chorlaydi.

Respublikamizda olib borilayotga barcha islohotlarning maqsadi davlatimz kelajagiga mustahkam poydevor qurishdan iborat. Bu poydevor sog‘lom, etuk va barkamol shaxslarni tarbiyalab voyaga etkazish natijasida yaratiladi. Ta’lim sohasidagi bu islohotlar bugungi kunda o‘z samarasini bermoqda. Mazkur huquqiy me’yoriy hujjatlar doirasi alohida e’tiborga muhtoj bolalar ta’lim-tarbiyasini ham qamrab olgan.



O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 23-sentabrdagi O‘PQ-637-sonli “Ta’lim to‘g‘risidagi qonuni”da “har bir bolaning ta’lim olishdagi teng huquqli”ligini ta’minalash, har qanday diskriminatsiya va kamsitishlarning oldini olishga qaratilgan “inklyuziv ta’lim” tushunchasi ham kiritildi [2]. Shuningdek, mazkur qonunning 55-moddasida “rivojlanishda jismoniy yoki psixik kamchiliklarga ega bo’lgan bolalar ta’lim olish huquqiga egadirlar” [3,11] – deyiladi. Demak, qonunga ko‘ra barcha o‘quvchilar uchun maxsus ta’lim ehtiyojlari va individual imkoniyatlarning farqliliginini inobatga olgan holda ta’lim muassasalarida ilm olishda teng huquqlilikni ta’minalashga hizmat qiladi.

Maxsus ta’limda ta’limda ta’lim-tarbiya olayotgan alohida e’tiborga muhtoj bolalar ta’lim-tarbiyasi masalasi bugungi kunda eng dolzarb masalalar sirasiga aylanib bormoqda. Maxsus ta’lim nuqsoninig qay darajada bo‘lishidan qat’iy nazar (ya’ni o‘g‘ir va yengil darajalar) alohida e’tiborga muhtoj bolalar uchun ta’lim tizimi sifatida rivojlangan. Ushbu ta’lim19 asr oxirlarida, alohida e’tiborga muhtoj bolalarning ehtiyojlarini umumta’lim muassasalarida qondirib bo‘lmaydi, degan taxminlar asosida qurilgan va nuqsoni o‘g‘ir va yengil darajasiga qaramay maxsus ta’limda o‘qilib kelingan. Maxsus ta’lim butun dunyoda maktab yoki internat shaklida, shuningdek umumta’lim maktablarining katta bo‘lmagan qismlari sifatida faoliyat yuritadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” [4], 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-son “Ozbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi farmonida “ta’lim jarayonlarini innovatsion texnologiyalar asosida individuallashtirish, inklyuziv ta’lim xizmatlarini rivojlantirish, alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarning umumiyl o‘rta ta’lim olishida va ularni bilish imkoniyatlariga muvofiq tarbiyalashda, ularning jamiyatga moslashuvi va integrasiyalashuvida ko‘maklashish, o‘quv-tarbiya, davolash-sog‘lomlashish, boshlang‘ich tayanch korreksion sinflarda ta’lim sifatini oshirish, nazorat qilish, boshqarish shuningdek tu‘g‘ilgan muammolarni zudlik bilan bartaraf etish talab etiladi [5].

## XULOSA

Inklyuziv ta’lim tizimida faoliyat olib bormoqchi bo‘lgan bo‘lajak o‘qituvchilar oldiga kelajakda o‘z kasbining yetuk mutaxassislari bo‘lib yetishishlari eng muhim o‘z sohasi o‘z kasbi bo‘yicha raqobatbardosh bo‘lishi uchun zarur bo‘lgan tayanch kompetensiyalarga ega bo‘lishi lozim. Shuningdek, inklyuziv ta’limga jalb qilingan alohida e’tiborga muhtoj o‘quvchilar va sog‘lom o‘quvchilarda har bir fanni ozlashtirishida albatta bo‘lajak o‘qituvchilardan inklyuziv ta’limga kompitensiaviy yondashuv asosida rivojlangan bo‘lishi muhim o‘rin tutadi.

## Foydalilanilgan adabiyotlar ro‘yhati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining SH.M. Mirziyoyevning 2020-yil 24-yanvara O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga Murojatnomasi.



2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 23-sentabrdagi O‘PQ-637-sonli “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonuni.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 23-sentabrdagi O‘PQ-637-sonli “Ta’lim to‘g‘risidagi qonuni, 55-moddasi.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi farmoni.

5. 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-son “Ozbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi farmoni.